

**KASABA UYUSHMALARINING HUQUQ IJODKORLIGIDAGI ROLINI
OSHIRISH MASALALARI: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI
KONTEKSTIDA**

Djamilya Abdullaeva,

O'zbekiston Kasaba Uyushmalari Federatsiyasi qoshidagi Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi katta o'qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18829986>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida huquq ijodkorligi jarayonini demokratlashtirish va institutsional takomillashtirish masalalari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda jamoatchilik, xususan kasaba uyushmalarining normativ-huquqiy siyosatni shakllantirishdagi o'rni Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) hamda xalqaro huquqiy majburiyatlar nuqtai nazaridan yoritiladi. Muallif ochiqlik, hisobdorlik va inklyuzivlik tamoyillarini huquq ijodkorligining asosiy mezonlari sifatida asoslab, milliy qonunchilikni xalqaro mehnat va inson huquqlari standartlari bilan uyg'unlashtirish zaruratini ilgari suradi.*

***Kalit so'zlar:** huquq ijodkorligi, fuqarolik jamiyati, kasaba uyushmalari, xalqaro huquqiy hamkorlik, barqaror rivojlanish maqsadlari, ijtimoiy sheriklik, jamoatchilik ekspertizasi.*

***Аннотация.** В данной статье представлен всесторонний анализ вопросов демократизации и институционального совершенствования законотворческого процесса в контексте масштабных социально-экономических реформ, проводимых в Республике Узбекистан. В исследовании рассматривается роль общественности, в частности профсоюзов, в формировании нормативно-правовой политики с точки зрения Целей устойчивого развития (ЦУР) и международных правовых обязательств. Автор обосновывает принципы открытости, подотчетности и инклюзивности как основные критерии законотворчества и выдвигает необходимость гармонизации национального законодательства с международными стандартами в области труда и прав человека.*

***Ключевые слова:** законотворчество, гражданское общество, профсоюзы, международное правовое сотрудничество, цели устойчивого развития, социальное партнерство, общественная экспертиза.*

***Annotation.** This article provides a comprehensive analysis of the issues of democratization and institutional improvement of the lawmaking process in the context of large-scale socio-economic reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan. The study examines the role of the public, in particular trade unions, in the formation of regulatory and legal policy from the perspective of the Sustainable Development Goals (SDGs) and international legal obligations. The author substantiates the principles of openness, accountability and inclusiveness as the main criteria for lawmaking and puts forward the need to harmonize national legislation with international labor and human rights standards.*

***Key words:** lawmaking, civil society, trade unions, international legal cooperation, sustainable development goals, social partnership, public expertise.*

KIRISH

Bizga ma'lumki, Huquq ijodkorligi – bu davlat hokimiyati organlari tomonidan umummajburiy xulq-atvor qoidalarini ishlab chiqish, qabul qilish va rasmiylashtirishga qaratilgan faoliyatdir. Zamonaviy konstitutsiyaviy davlat konsepsiyasida ushbu jarayon faqat normativ texnika bilan emas, balki ochiqlik, ishtirok va hisobdorlik tamoyillari bilan ham belgilanadi.

Demokratik huquqiy davlat modelida fuqarolik jamiyati institutlari huquq ijodkorligining tashqi kuzatuvchisi emas, balki faol subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Bu yondashuv BRMning 16-maqsadi – “Tinchlik, adolat va samarali institutlar” – bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur maqsad samarali boshqaruv, qonun ustuvorligi va inklyuziv qaror qabul qilish jarayonlarini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston – 2030” strategiyasi aynan shu tamoyillarga tayangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, u Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'un holda amalga oshirilmoqda.

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida davlat boshqaruvining samaradorligi bevosita normativ-huquqiy bazaning sifati bilan belgilanadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar huquq ijodkorligi jarayonini zamonaviy demokratik standartlar asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Shu o'rinda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) milliy darajada institutsional va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha bo'lgan taraqqiyot strategiyasi BRM bilan uyg'un holda ishlab chiqilgan bo'lib, u inson huquqlarini ta'minlash, ijtimoiy adolat, ekologik barqarorlik va samarali boshqaruv tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan.

Fuqarolik jamiyati institutlari davlat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi ijtimoiy-huquqiy mexanizm sifatida maydonga chiqadi. Ular ijtimoiy manfaatlarni artikulyatsiya qilish, normativ tashabbus ko'rsatish va huquqiy monitoringni amalga oshirish imkoniyatiga ega.

O'zbekistonda eng yirik fuqarolik jamiyati subyektlaridan biri – O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi bo'lib, u millionlab a'zolar manfaatlarini ifodalaydi. Uning huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasining “Kasaba uyushmalari to'g'risida”gi Qonuni bilan mustahkamlangan. Mazkur qonunga muvofiq, kasaba uyushmalari:

- ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarga daxldor normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

- mehnat munosabatlariga oid hujjatlarni majburiy kelishadi;

- ijtimoiy dasturlar va yashash minimumi mezonlarini shakllantirishda qatnashadi.

Bu esa ularni huquq ijodkorligining muhim institutsional ishtirokchisiga aylantiradi.

Huquq ijodkorligining zamonaviy bosqichi milliy qonunchilikni xalqaro huquq normalari bilan uyg'unlashtirishni talab qiladi. O'zbekiston inson huquqlari va mehnat sohasida bir qator xalqaro shartnomalarning ishtirokchisi hisoblanadi.

Xususan, Xalqaro Mehnat Tashkiloti konvensiyalari; Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlariga oid asosiy shartnomalari; Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasidagi xalqaro majburiyatlar, Xalqaro mehnat standartlari, ayniqsa 87-sonli "Uyushmalar erkinligi va kasaba uyushmalarini himoya qilish to'g'risida"gi hamda 98-sonli "Tashkilotlash va jamoaviy muzokaralar yuritish huquqi to'g'risida"gi konvensiyalar, kasaba uyushmalarining normativ jarayonlardagi ishtirokini kafolatlaydi.

Shu nuqtai nazardan, kasaba uyushmalarining huquq ijodkorligidagi faoliyati xalqaro majburiyatlarni milliy darajada implementatsiya qilish mexanizmi sifatida ham baholanishi mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekistonning xalqaro hamkorligi doirasida, Yevropa Ittifoqi bilan kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik bitimi loyihasi, Markaziy Osiyo mintaqaviy mehnat migratsiyasi dasturlari hamda inson huquqlari bo'yicha universal davriy mexanizmlari hamda milliy qonunchilikni doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etadi.

Shuningdek, amaldagi normativ-huquqiy baza jamoatchilik ishtirokini nazarda tutgan bo'lsa-da, quyidagi tizimli muammolar mavjud:

- Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining yetarli darajada oshkoralik bilan e'lon qilinmasligi;

- Jamoatchilik takliflarini ko'rib chiqish mexanizmlarining aniq reglamentlanmaganligi;

- majburiy jamoatchilik ekspertizasi institutining sust rivojlanganligi;

- normativ hujjatlarning tez-tez o'zgartirilishi va barqarorlikning pastligi.

Bu holat qonunchilik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, huquqiy nigilizm va ijtimoiy ishonchsizlikni keltirib chiqaradi.

Huquq ijodkorligi jarayonini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish uchun quyidagi konseptual choralar taklif etiladi:

• O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonuniga majburiy jamoatchilik ekspertizasini kiritish;

- normativ hujjatlarni ishlab chiqishda “regulyator ta’sirini baholash” (RIA) mexanizmini kuchaytirish;
- kasaba uyushmalari va NNT vakillarini parlament qo‘mitalari huzuridagi maslahat organlariga doimiy asosda jalb etish;
- xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda normativ monitoring va komparativ-huquqiy tahlil mexanizmlarini joriy etish;
- raqamli platformalar orqali ochiq muhokama tizimini institutsionallashtirish.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, huquq ijodkorligi jarayonida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish demokratik davlat qurilishining muhim shartidir. Kasaba uyushmalari yirik va institutsional jihatdan shakllangan fuqarolik jamiyati subyekti sifatida normativ-huquqiy siyosatni shakllantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Jamoatchilik ekspertizasi, ochiqlik va hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish orqali:

- normativ-huquqiy hujjatlar sifati oshadi;
- ijtimoiy adolat mustahkamlanadi;
- huquqiy ong va madaniyat yuksaladi;
- ijtimoiy tanglik darajasi pasayadi.

Shu tariqa, kasaba uyushmalarining huquq ijodkorligidagi rolini kuchaytirish O‘zbekistonning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lidagi muhim institutsional omil sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha bo‘lgan Barqaror rivojlanish milliy maqsad va vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha Ikkinchi ixtiyoriy milliy sharhi. – Toshkent, 2023.
3. <https://www.undp.org/ru/uzbekistan/press-releases/nacionalnye-celi-ustoychivogo-razvitiya-uzbekistana-progress-i-vyzovy-v-dostizhenii-cur>
4. Добровольный национальный обзор о реализации национальных целей и задач устойчивого развития Узбекистана до 2030 года (второй) https://api.mf.uz/media/document_files/DNO_IPMI_ru.pdf
5. <https://www.state.gov/reports/2022-country-reports-on-human-rights-practices/>
6. https://kasaba.uz/wp-content/uploads/2022/01/RUS_UZB_DWCP-Uzbekistan-2021-2025_FF_21Sep-002.pdf
7. Агентство статистики (<https://nsdg.stat.uz/>).
8. Закон Руз «О профессиональных союзах, их правах и гарантиях их деятельности».
9. Абдуллаева Д.К. и др. Участие общественности Центральной Азии в процессе правотворчества, Казахстан, Алматы, 2014 г.
10. https://oldmy.gov.uz/en/site/statistic-graph?city_id=1733
11. The role of good governance institutions, Central Asian Human Development Report, Bringing down the barriers: regional cooperation for human development and human security, 2005.
12. Ласточкина К.А. Участие профсоюзов в правотворчестве сравнительный анализ, Право и демократия, сб. научных трудов, вып.27, Минск, 2016.